



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Sanjar Baxronkulovich Boboqulov</b> Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
<b>Фарангис Азамовна Ишанкулова</b> Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
<b>Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
<b>Shohina Xujmaxmatovna Pirova</b> Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarining tutgan o'rni va ahamiyati	91
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева</b> Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
<b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b> Ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Елена Вячеславовна Гольшева</b> Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
<b>To'liqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova</b> Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
<b>Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov</b> Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
<b>Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
<b>Dostonbek Furqat o'g'li Tilovmurodov</b> Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
<b>Shohro' Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
<b>Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatillayev</b> Turizm va mehmondo'stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg'unlashtirish masalalari	136
<b>Йылмаз Улви Узун</b> Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
<b>Askar Axrorovich Siddiqov</b> Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
<b>Diyora Farhod kizi Bahriddinova</b> Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов</b> Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

<p><b>Т.Шарипов, М.Умирзокова</b>  <b>Социально-экономическое значение развития сферы туристских услуг</b></p>	<p><b>T.Sharipov, M.Umirzoqova</b>  <b>Socio-economic importance of tourism services development</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В данной статье освещена социальная и экономическая значимость ускоренного развития сферы туристических услуг в современной глобализации и конкурентной экономической среде. Сфера туризма играет важную роль в повышении валового внутреннего продукта страны, обеспечении занятости, развитии инфраструктуры и пропаганде национальной культуры.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туристические услуги, социально-экономическое развитие, занятость, инвестиции, инфраструктура, культурное наследие, экономический рост, территориальное развитие.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article highlights the social and economic significance of the accelerated development of tourism services in the modern globalization and competitive economic environment. The tourism sector plays an important role in increasing the country's gross domestic product, providing employment, developing infrastructure and promoting national culture.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism services, socio-economic development, employment, investment, infrastructure, cultural heritage, economic growth, territorial development.</p>

**Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov** – SamISI turizm kafedrası professori v.b., PhD

**HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH  
 MEXANIZMINING TASHKILY VA METODOLOGIK ASOSLARI**

<p><b>Annotatsiya.</b> Maqolada turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarining tashkiliy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari empirik modellashtirilgan hamda turizmning iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti va barqarorlik indeksi orqali baholash modeli ishlab chiqilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> barqaror turizm, investitsion faollik, davlat-xususiy sherikchilik, klasterli boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, yashil texnologiya, turizm indeksi.</p>
---

**Kirish.** Turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan bir sharoitda, uning barqaror rivojlanib borishini ta’minlash masalasi ham yuzaga chiqib kelmoqda. UNWTOning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global sayyohlik daromadi 1 400 mlrd AQSh dollarga yaqinlashgan bo‘lsa, ayni paytda sayohat va dam olish bilan bog‘liq faoliyatlar jahon bo‘yicha energetik iste’mol, chiqindilar hosil bo‘lishi va tabiiy manbalarga bosimni oshirmoqda<sup>1</sup>. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, turizmni rivojlantirishda nafaqat uning ulushini oshirish, balki barqarorlashtirish tamoyili ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiy rivojlanishga katta e’tibor qaratgan davlat sifatida, turizmni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sektorini kengaytirish va hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish maqsadida qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni<sup>2</sup> turizm sohasida xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog‘i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda barqaror turizmni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87 son Farmoni qabul qilindi<sup>3</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turizmning hududlarda barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun an’anaviy infratuzilmaviy yondashuvlardan tashqari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, ya’ni investitsiyalar, xizmatlar sifati, hududiy boshqaruv va barqarorlik indeksleri tizimi keng qo‘llanilishi lozim. Hududlar kesimida turizm salohiyati, sarmoya faolligi, xizmatlar strukturasi raqobatbardoshligi va barqarorlik holati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikni metodologik jihatdan tahlil qilish zarur.

<sup>1</sup> UNWTO World Tourism Barometer - November 2023, EXCERPT,

[https://tourismanalytics.com/uploads/1/2/0/4/120443739/unwto\\_barometer\\_november\\_2023.pdf?utm\\_source](https://tourismanalytics.com/uploads/1/2/0/4/120443739/unwto_barometer_november_2023.pdf?utm_source)

<sup>2</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son

<sup>3</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Turizm sohasining barqaror rivojlanishi bo‘yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ko‘pgina mualliflar sohaning barqaror rivojlanishida iqtisodiy, tashkiliy va ekologik omillarni bir butun tizim sifatida qaraydi. Xususan, xorijiy olimlardan<sup>1</sup> A.Y.Aleksandrova, L.V.Kovineva, V.A.Kvartalnov, A.B.Kosolapov, Jeong, J. Kabilar turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratishgan.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishning tashkiliy va metodologik jihatlari<sup>2</sup> I.S.Tuxliyev, M.K.Pardayev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduhamidov, J.N.Abiyev va boshqalarning tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan.

Mazkur olimlarning tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida barqaror rivojlanish mexanizmlari samarali ishlashi uchun boshqaruv hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining uyg‘unligi, investitsion mexanizmlarning iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘langanligi, tashkiliy modelning ekologik va ijtimoiy indikatorlar bilan integratsiyalashgani muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslarini tadqiq qilishda analiz va sintez, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillardan ko‘rish mumkinki, barqaror turizm – bu iqtisodiy foyda, ijtimoiy farovonlik hamda ekologik muvozanat o‘rtasidagi munosib nisbatni ta‘minlovchi tizimdir. 2015-2024 yillar davomida mamlakat turizm sohasi yirik iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 1,94 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 6,7 mln. nafarga yetgan. Pandemiya davrida bu ko‘rsatkich 1,5 mlnga tushgan bo‘lsada, 2024-yil yakuniga kelib 5,9 mlnga yetgan.

Turizm xizmatlaridan olingan daromad esa 2015-yildagi 557 mln AQSh dollaridan 2024-yilda 2,8 mlrd AQSh dollarigacha oshgan. Xizmatlar eksportidagi turizm ulushi 2015-yilda 8,2 % bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 14,6 % ga yetgan.

Bu davrda eng katta o‘shish Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida kuzatilgan, chunki ular UNESCO meros obyektlariga ega va xalqaro marketingda faol targ‘ib qilinmoqda. Navoiy viloyatida esa 2019-2024-yillarda ekologik va ziyorat turizmining rivojlanishi hisobiga 37 % lik o‘shish qayd etilgan.

Tadqiqotimizda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholash uchun UNWTO tomonidan tavsiya etilgan “Turizm barqarorlik indeksi (TBI)” dan foydalanildi. U quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$TBI = \frac{E_t + S_t + I_t}{3}$$

bu yerda:  $E_t$ - ekologik barqarorlik ko‘rsatkichi (chiqindilarni kamaytirish, yashil texnologiyalar ulushi);

$S_t$ - ijtimoiy barqarorlik (bandlik, mahalliy aholi ishtiroki);

$I_t$ - iqtisodiy barqarorlik (turizm daromadining o‘shish sur‘ati).

Mazkur formula asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlaridan kelib chiqib hisob-kitob qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2015-2024-yillar uchun hisoblangan o‘rtacha TBI qiymatlari quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

<sup>1</sup> Александрова А. Ю. География туризма. Москва, КНОРУС, 2010. -592 с.; Квартальнов В.А. Туризм: теория и практика: Избранные труды: В 5ти т. –М.: “Финансы и статистика”, 1998; Ковынева Л.В. Региональный туризм : монография, – Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2005. – 12 с.; Косолапов А.Б. Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер./ А.Б.Косолапов. – М.2006-400с.; Jeong, J. Y., Karimov, M., Sobirov, Y., Saidmamatov, O., & Marty, P. Evaluating Culturalization Strategies for Sustainable Tourism Development in Uzbekistan. Sustainability, 15(9), 7727.

<sup>2</sup> Tuxliyev, I. Yangi O‘zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo‘nalishlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(1). 2024; Pardayev, I. Changes on tourism serve improvement of tourism in the Republic of Uzbekistan. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT/JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT. “Global Research Network LLC”, 2018. 19-29; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 184 b.; AS Adkhamovich, AN Jaxongirovna. Features of Innovative Development of the Market of Tourist Services in Uzbekistan, Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. 2023. 32-35.

**O‘zbekistonda 2015-2024-yillar uchun hisoblangan o‘rtacha TBI qiymatlari**

Yillar	Ekologik (Et)	Ijtimoiy (St)	Iqtisodiy (It)	TBI
2015	0.52	0.55	0.58	<b>0.55</b>
2017	0.60	0.63	0.68	<b>0.64</b>
2019	0.72	0.70	0.74	<b>0.72</b>
2021	0.61	0.62	0.69	<b>0.64</b>
2024	0.80	0.83	0.85	<b>0.83</b>

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2015-2024-yillar oralig‘ida TBI 0.55 dan 0.83 gacha o‘sgan, bu 50 % dan ortiq yaxshilanishni anglatadi. Eng faol o‘shish 2017-2019-yillarga to‘g‘ri kelgan bo‘lib – bu davrda turizm siyosati bo‘yicha yirik islohotlar amalga oshirilgan.

Bundan tashqari hududlar kesimida ham barqarorlik darajasi va investitsion faollik o‘zgaruvchanligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotimizda hududiy turizm samaradorlik koeffitsienti (HTSK)ni ham aniqlashga qaror qildik hamda quyidagi modeldan foydalandik:

$$HTSK = \frac{T_d * R_t}{C_i}$$

bu yerda:  $T_d$ - sayyohlar sonining o‘shish sur‘ati (%);

$R_t$ - turizm daromadining o‘shish sur‘ati (%);

$C_i$ - investitsiya hajmi (mlrd so‘m).

**Viloyatlar kesimida 2015-2024 yillar uchun hisoblangan o‘rtacha TBI va HTSK qiymatlari**

Hudud	Investitsiya (mlrd. so‘m)	Sayyohlar soni (ming)	TBI	HTSK	Izoh
Toshkent sh.	1250	2120	0.84	1.36	Servis sektori rivojlangan
Samarqand	980	1890	0.81	1.42	Madaniy va ilmiy turizm
Navoiy	670	420	0.73	1.08	Ekoturizm va ziyorat
Buxoro	830	1210	0.79	1.31	Tarixiy meros
Xorazm	520	350	0.85	1.55	Etnoturizm klasteri

Olib borgan tahlilimiz natijalariga ko‘ra, HTSK > 1.3 bo‘lgan hududlarda (Samarqand, Xorazm, Toshkent) turizm nisbatan yuqori samaradorlik bilan rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. HTSK ≈ 1 atrofida bo‘lgan hududlarda (Navoiy, Buxoro) esa barqarorlik mavjud, yanada rivojlantirish uchun yangi investitsiya manbalari va qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, 2015-2024-yillar davomida O‘zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanish indeksi barqaror tarzda oshib borganini kuzatish mumkin. Eng muhim omillar sifatida investitsiyalar hajmi, hududiy servis infratuzilmasining kengayib borishi va boshqaruvning tashkiliy mexanizmlarini aytilish mumkin. Ayniqsa, 2018-2024-yillar oralig‘ida klasterli boshqaruv siyosati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning kuchayishi barqarorlik dinamikasini jadallashtirgan.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha normativ, tashkiliy va metodologik asoslar yaratilib, hozirda ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, mazkur asoslarning hududlardagi amaliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, 2015-2024-yillarda turizmning barqarorlik indeksi nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘sgani bilan bir qatorda, iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun yangi investitsion va innovatsion yechimlar talab etiladi.

Fikrimizcha, barqaror turizmni rivojlantirishning kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlari – bu hududlarda yashil texnologiyalarni keng joriy etish, klasterli mexanizmdan faol foydalanish hamda institutsional boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishdir.

Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslarini rivojlantirishda quyidagi ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

1. Hududiy barqaror turizm dasturlarini ishlab chiqish. Har bir viloyatda turizmning o‘ziga xos turlariga (madaniy, ekologik, sog‘lomlashtirish, sanoat, ilmiy turizm) mos ravishda strategik dasturlar ishlab chiqish zarur;

2. Investitsion mexanizmlarni diversifikatsiya qilish. Bunda barqaror turizmni moliyalashtirishda “yashil obligatsiyalar”, “eco-loan” va “sustainability credit” tizimlarini joriy etish;

3. Mahalliy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Mehmonxona, transport, IT servis va onlayn bron tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali turistlarning qaytib kelish va qolish koeffitsientini yanada oshirish;

4. Ekoturizmni rag‘batlantirish. O‘zbekistonning tog‘li va cho‘l hududlarida (Zarafshon, Nurota, Surxondaryo) ekologik marshrutlar va “green camp” loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;

5. Xizmat ko‘rsatuvchi kadrlar salohiyatini oshirib borish. Turizm boshqaruvi va marketingi bo‘yicha xalqaro sertifikatlash tizimini (UNWTO Academy, Coursera Tourism Management, edX Sustainable Tourism) mahalliy oliy ta‘lim tizimiga integratsiya qilish.

6. Xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish. ADB, OECD va UNWTO bilan hamkorlikda hududiy turizm barqarorligini moliyaviy va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Amriddinova, R. S., Abdukhamidov, S. A. (2021). Factors for Determining the Specialization of the Regions of the Republic of Uzbekistan in Tourism and the Assessment of Tourist Attractiveness. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(10), 51-55.

2. Karimov, M. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Economies (Journal of MDPI), 13, 218-233. <https://doi.org/10.3390/economies1302018>

3. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. Wallingford: CABI Publishing.

4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2024). Sustainable Tourism for Development Guidebook. Madrid: UNWTO. <https://www.unwto.org>

5. World bank. Tourism Watch - Quarterly Report: Q4 2023. [https://documents1.worldbank.org/curated/en/099642505212432465/pdf/IDU1ecbeb3ff1f635141e31aeee1cd5dfd0c200c.pdf?utm\\_source](https://documents1.worldbank.org/curated/en/099642505212432465/pdf/IDU1ecbeb3ff1f635141e31aeee1cd5dfd0c200c.pdf?utm_source)

6. Berdimurodov Azizjon. Improving the Mechanism of Sustainable Development of the Tourism Sector in the Regions. Gospodarka i Innowacje, 2024/2/13, 104-108

<p><b>А.Бердимуродов</b></p> <p><b>Организационно-методические основы механизма устойчивого развития сферы туризма в регионах</b></p>	<p><b>A.Berdimurodov</b></p> <p><b>Organizational and methodological basis of the mechanism of sustainable development of the tourism sphere in the regions</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье анализируются организационно-методические основы механизмов устойчивого развития туристской сферы в регионах. В ходе исследования эмпирически моделируются показатели экономической, социальной и экологической устойчивости туризма и разрабатывается модель оценки с использованием коэффициента экономической эффективности туризма и индекса устойчивости.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> устойчивый туризм, инвестиционная деятельность, государственно-частное партнерство, управление кластером, экономическая эффективность, зеленые технологии, индекс туризма.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article analyzes the organizational and methodological foundations of sustainable tourism development mechanisms in the regions. The study empirically models indicators of economic, social, and environmental sustainability of tourism and develops an assessment model using the tourism economic efficiency coefficient and sustainability index.</p> <p><b>Keywords:</b> sustainable tourism, investment activity, public-private partnership, cluster management, economic efficiency, green technology, index tourism.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.